

PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL LINGUISTICS TRANSLATION STUDIES AND INTEGRATION OF LANGUAGE TEACHING PROCESSES



Section 1: Cognitology and cultural linguistics in modern linguistics.

Section 2: Literary criticism and society.

Section 3: Problems of comparative typology and translation studies, modern problems of philology.

Section 4: Integration of communicative technologies in language learning.



Deep Learning
May 22, 2024
Network capable of
adapting itself to new
data



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Ingliz tilshunosligi kafedrası

**PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL TARJIMASHUNOSLIK VA TIL
O‘RGATISH JARAYONLARI INTEGRATSIYASI**

**mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari
TO‘PLAMI**

2024 yil, 22-may

Buxoro 2024

18. Erkinovna, Y. F. . (2023). Expression of the Modesty Maxim in English. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(6), 333–336. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/338>

19. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2023). Cross-Cultural Variation and Distribution of Politeness Strategies . American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 31–34. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/864>

20. Kovalev, I., Kovalev, D., Kovalev, R., Podoplelova, V., Losev, V., Borovinsky, D., ... & Gadoeva, M. (2024). Assessing the reliability of the hardware and software complex of fault-tolerant control systems. In E3S Web of Conferences (Vol. 525, p. 05001). EDP Sciences.

21. Kovalev, I., Kovalev, D., Kovalev, R., Podoplelova, V., Losev, V., Voroshilova, A., ... & Gadoeva, M. (2024). The concept of architectural reliability of software for ensuring the functioning of request-free measuring stations. In E3S Web of Conferences (Vol. 525, p. 05002). EDP Sciences.

IQTISODIY MATNDAGI MATAFORA VAZIFALARI

Khayrullayeva N.N.- BSU, (PhD)

Ingliz tilshunosligi kafedrası

Annotatsiya: Mazkur maqola metaforaning iqtisodiy kontekstda tur xil vazifalari masalalariga bag`ishlanadi. Bunda nominativ atash funksiyasi, informativlik funksiyasi, mnemonic funksiyasi hamda matn hosil qilish funksiyalari to`liq yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: kredit portfeli, harbiy harakatlar, vizual tasvirlash, iqtisodiy olam

Abstract: This article is devoted to the various functions of metaphor in the economic context. The nominative naming function, informativeness function, mnemonic function and text generation functions are fully explained.

Key words: credit portfolio, military operations, visual representation, economic world

Аннотация: Данная статья посвящена различным функциям метафоры в экономическом контексте. Подробно объяснены номинативная функция наименования, функция информативности, мнемоническая функция и функции формирования текста.

Ключевые слова: кредитный портфель, военные операции, визуальное представление, экономический мир.

Globallashuv va iqtisodiy muammolarni muhokama qilishda, shuningdek, jahon iqtisodiyoti bilan bog`liq holatlarni hal qilishda nutqiy muloqotda til vositalari orasida metafora alohida o`rin tutadi. Ko`pgina adabiyotlarda iqtisodiyot bilan bog`liq tushunchalarni, obyekt va hodisalarni aks ettirishning mahsuldor usullaridan biri konseptual metafora ekanligi, o`yinlar, sport musobaqalari, harbiy harakatlar iqtisodiy tushunchalarni vizual tasvirlash imkonini berishi qayd qilinadi.¹ Shunday qilib, iqtisodiy matndagi metafora voqelikni bilishning murakkab jarayonlarida faol ishtirok etadi va bu dunyoda sodir bo`layotgan hodisalar haqida yangi bilimlarga ega bo`lishda katta rol o`ynaydi.

Metafora lisoniy birlik sifatida nutqda o`ziga xos lingvistik yukni ko`taradi, metaforaning tildagi rolini aniqlash uchun uning asosiy vazifalarini ko`rsatib o`tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ilmiy adabiyotlarda metaforaning quyidagi vazifalari ajratib ko`rsatilgan.

1. Nominativ atash funksiyasi. Ko`chma ma`noda qo`llaniladigan so`zlarning muhim vazifalaridan biri nominativ funksiyadir (lot. nominatio – “nomlash, belgilash”). Mazkur vazifa oddiy metaforalar yordamida amalga oshiriladi, bunday turdagi metaforalar o`zining obrazlilikini yo`qotgan bo`ladi va to`g`ridan to`g`ri nom vazifasini bajaradigan metafora sanaladi:² ingliz tilida *Forgiven Sunday, black trade, pansies* kabi, *tushgan pul, soliqqa tortmoq, pul aylanmasi, investitsion jozibadorlik, kredit portfeli, iqtisodiy o`smoq, qiymat zanjiri, dollar tushmoq, pul almashtirmoq* kabi keng tarqalgan, odatiy birlikka aylangan metaforalarni misol qilish mumkin. Metafora tufayli nominatsiya tizimlarida tushunarsiz yoki deyarli aniq bo`lmagan tushunchalar muayyanlashadi. Nominativ funksiya asosida iqtisodiy voqelik obyektini yoki hodisasi metaforik nomlanadi va iqtisodiy

¹ Бородулина Н.Ю., Коломейцева Е.М. Модель метафоры и метафорические модели (на материале русских и французских экономических текстов). -М.: Наука, 2004.- С.27.

² http://mobile.studbooks.net/2427/literatura/funksii_metafory_tekste

lug‘at zahirasini to‘ldiradi. Natijada yangi leksik birliklar paydo bo‘ladi. Aytish mumkinki, metaforalarning nominativ xususiyatlari tarjima jarayonida ona tilidagi so‘zlarni boshqa tillarga o‘girishda, obraz hosil qilishda yaqqol ko‘rinadi.

2. Informativlik (axborot) funksiyasi. Murakkab, ammo go‘zal hodisa sanalmish metafora orqali narsa, predmet, hodisa haqidagi axborot yaxlit, obrazli uzatilar ekan, uning hosil bo‘lishi, yaratilishi uchun so‘zlovchida juda boy leksik zaxira bo‘lishi kerak. Iqtisodiy metaforalarning kommunikativ funksiyasi orqali iqtisodiy jarayonlar anglanadi, iqtisodiyot olamidagi voqealar haqidagi ma‘lumotlar ifodalanadi, ularni saqlash va uzatish imkoni yaratiladi hamda uning yordamida bu ma‘lumotlar o‘quvchilar va tinglovchilarga eshitimli, qiziqarli bo‘ladi, masalan: *aholining iste‘mol kayfiyati, erkin bozor munosabatlari, kartalar bilan muomala qilmoq* kabi tanish assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Misol uchun ingliz tilida:

– A new commodity spawns a lucrative, fast-growing industry, prompting antitrust regulators to step in to restrain those who control its flow. A century ago, the resource in question was oil. Now similar concerns are being raised by the giants that deal in data, *the oil of the digital era*. (*The Economist*). Ushbu jumladagi *the oil of the digital era* iqtisodiy metaforasi axborot berish vazifasini o‘tamoqda.

O‘zbek tilida:

– Hozirgi rivojlanib borayotgan erkin iqtisodiyot bozorida *aholining iste‘mol kayfiyati* dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda¹. Demakki, har ikkala tilda ham metaforalarning informativlik funksiyasi iqtisodiyot olamidagi axborotlarni yetkazishga xizmat qilmoqda.

Mnemonik funksiya. Mnemonika (yunoncha *mnemonika* – eslab qolish san‘ati) – sun‘iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo‘li bilan esda saqlashni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Ba‘zi mnemonistlar o‘zlashtirishda har xil sun‘iy usullarni qo‘llashga o‘rganganligi tufayli katta hajmdagi, hatto ma‘nosiz materialni tez esda olib qolish qobiliyatiga erishadilar. Lekin xotira samaradorligini tub ma‘noda oshirish uchun sun‘iy usullardan foydalanish ikkinchi darajali hamda yordamchi bo‘lib hisoblanadi. Umuman, mexanik ravishda yod olishga qaraganda ma‘nosiga tushunib yod olish ma‘qul va samarali usuldir². Metafora ma‘lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. Metaforaning mnemonik funksiyasi ilmiy-ommabop adabiyotlarda *tushuntirish*, xalq topishmoqlari, maqollari, adabiy aforizmlarida *janrni shakllantiruvchi*, falsafiy tushunchalar, falsafiy ilmiy nazariyalarda evristik, ya‘ni *tafakkur qilish, ijodiy fikrlash* funksiyalari bilan birlashadi. Bir predmet/holat yoki harakat haqida gap ketganda metafora bilan birga shu bilan bog‘liq ayrim xalq hikmatlari, maqollari, donishmandlar fikri assotsiativ xotirlanadi: Misol uchun, *Amir Temur iqtisodiyotni har qanday saltanat poydevori, deb tushungan. «Davlatu saltanat – deb ta‘kidlaydi, Temur o‘zining «Tuzuklari»da, – uch narsa bilan – mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir».* Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishi zarurligini ta‘kidlaydi³.

Ingliz tilida esa:

“The body of society's life is economy, and its soul and spirit is spirituality» said Shavkat Mirziyoyev. As we decided to build a new Uzbekistan, we rely on two strong pillars. The first is a strong economy based on market principles. The second is a strong spirituality based on the rich heritage of our ancestors and national values”.

“Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir”, – deya ta‘kidlaydi Shavkat Mirziyoyev. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kunda so‘zlagan yig‘ilish nutqi).

¹ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Tahliliy jurnal. – Toshkent, 2020. – №6. – B. 24.

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mnemonika>

³ Муқимов З. Амир Темур тузуклари (тарихий ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – 131 б. – Б.13.

Ingliz tilida keltirilgan misolda hayotning tanasi iqtisodiyotga o'xshatilyapti, shuningdek, metafora tarzida aytilgan *The body of society's life is economy, and its soul and spirit is spirituality* so'zi keyingi jumlada ochib berilyapti. Ya'ni "The body of society's life is economy" iqtisodiy metaforasi keyingi satrda mnemonik tarzda bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot ekanligi eslatib o'tilyapti.

Misollardan ko'rinib turganidek, har ikkala tilda ham ushbu iqtisodiy metaforalar mnemonik funksiyasida kelmoqda, natijada ma'lumotning yaxshiroq hamda yorqinroq eslab qolinishiga yordam bermoqda.

4. Matn hosil qilish funksiyasi. Tabiiyki, metaforaning mazkur vazifasi matnni shakllantirish, kengaytirish, izohlash bilan bog'liqdir. Masalan, fanda metodologiya va metod haqida gap ketganda metodlar haqidagi ta'limot, metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo'lini o'rgatadi, deya ta'rif beriladi. Ushbu nazariy fikrni metafora keltirish yo'li bilan oddiy shaklda izohlash mumkin, ya'ni metodologiya – *yo'l*, metod esa belgilangan *yo'lga piyoda, velosipedda, avtobusda borish mumkinligi*(*tanlash ixtiyoriyligi*).

Iqtisodiyotning qon tomiri – *iqtisodiyotning qon tomiri bo'lmish bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi muqarrar* (O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi: 2020.-№1.-B. 26).

Ingliz tilida quyidagilarni uchratishimiz mumkin:

Know, *the sun is tired*:

It hides behind the mountains;

Ray repays behind a ray

And, scarlet, *thin cloud*,

Having pulled out his tired face,

Get out to rest.

It's time for him to rest.

Keltirilgan jumalarda metafora matn mazmunini aniqlashtirish, izohlash uchun xizmat qilmoqda. *The sun is tired, It hides behind the mountains thin cloud* so'zlari metafora bo'lib kelmoqda. Quyoshning charchashi, tog'lar orasida yashirinishi bu yerda majoziy ma'noda qo'llanilmoqda. Har ikkala holatda metafora gap shaklda qo'llanilib, matn hosil qilishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, bu metaforalarning barchasi iqtisodiy hodisalarni muhokama qilishda muhim rol o'ynaydi, iqtisodiy muammolarni ko'rsatish usuli bilan e'tiborimizni tortadi. Ushbu metaforalarning barchasi iqtisodiy matnlar orasida muhim va alohida o'rin tutadi hamda iqtisodiy muammolarning paydo bo'lishi, shuningdek, nizo va qarama-qarshiliklarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari iqtisodiy matndagi metaforaning vazifasi jahon iqtisodiyotining holatini tushunishdan iborat bo'lib, iqtisodiy tushunchalarni vizual, tushunarli va turlicha tasvirlash imkonini beradi hamda tabiatda namoyon bo'ladigan murakkab hodisalarga ta'riflar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бородулина Н.Ю., Коломейцева Е.М. Модель метафоры и метафорические модели (на материале русских и французских экономических текстов). -М.: Наука, 2004.- С.27.
2. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Tahliliy jurnal. – Toshkent, 2020. – №6. – B. 24.
3. Муқимов З. Амир Темур тузуклари (тарихий ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – 131 б. – Б.13.
4. Хайруллаева, N. (2022). СЕКТОР ЭКОНОМИКИ КОНГЕНИТИВНЫЙ В ГАЗЕТНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРИМЕНЕНИЕ МЕТАФОРЫ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4451
5. Nodira, X. (2022, January). Iqtisod haqidagi ilk bitiklar va ilk marotaba qollanilgan metaforalar. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 124-126).
6. http://mobile.studbooks.net/2427/literatura/funksii_metafory_tekste
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mnemonika>

8. Шукурова, М. (2023). REVIEW OF LINGUISTIC THEORIES IN THE ENGLISH LANGUAGE OF THE RENAISSANCE PERIOD. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
9. Шукурова, М. А. (2021). Анализ специальной лексики английского языка XVI века по аспектам терминологичности. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).
10. Shukurova, M. A. (2017). Useful strategies in teaching grammar in english language classes. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (1 (1)), 146-148.
11. Askarovna, S. M. (2021). Historical background on the systematization of the vocabulary of ethics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 25-29.
12. Шукурова–БухГУ, М. А. (2020). КОРРЕЛЯЦИЯ СОЗНАНИЯ, ЯЗЫКА И СТИЛЯ НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОГО ИЗЛОЖЕНИЯ ПЕРИОДА XVI-XVII ВЕКОВ. *ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман 5-6 март 2020 йил*, 597.
13. Askarovna, S. M. (2023). A BRIEF OVERVIEW OF THE DEVELOPMENT OF THE LEXICAL-CONCEPTUAL FIELD OF ETHICS IN THE XVIth-XVIIIth CENTURIES. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(26), 25-31.
14. Шукурова, М. (2023). XVI-XVII ASRLAR INGLIZ TILI ETIKA TERMINLARINING STRUKTUR TAHLILI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
15. Шукурова, М. (2023). MODERN LINGUISTICS AND SOME PROBLEMS RELATED TO TERMINOLOGY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 42(42).
извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10953
16. Rakhmatova, M. M., & Botirova, N. F. (2022). NEW APPROACHES IN LATINO AMERICAN POETRY: CHICANO POETRY. *Open Access Repository*, 8(04), 92-94. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=en&q=related:reL94mAt4vkJ:scholar.google.com/#d=gs_qabs&t=1716271950314&u=%23p%3DreL94mAt4vkJ
17. Rakhmatova, M. (2022). Академическая честность и плагиат: проблемы воспитания. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 15(15). https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=en&q=related:jPfgCIOLhZcJ:scholar.google.com/#d=gs_qabs&t=1716272009730&u=%23p%3DjPfgCIOLhZcJ
18. Rakhmatova, M. M. (2019). Aesthetic judgement: language as a mirror to reflect “Beauty”. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10(78), 282-288. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=en&q=related:v7vRLr0O324J:scholar.google.com/#d=gs_qabs&t=1716272083077&u=%23p%3Dv7vRLr0O324J
19. Kovalev, I., Kovalev, D., Kovalev, R., Podoplelova, V., Losev, V., Borovinsky, D., ... & Gadoeva, M. (2024). Assessing the reliability of the hardware and software complex of fault-tolerant control systems. In *E3S Web of Conferences (Vol. 525, p. 05001)*. EDP Sciences.

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Д.А. Баракатова

*Доцент кафедры узбекского языка и литературы
Бухарский инженерно-технологический институт, г.Бухара,*

Аннотация: Данная статья рассматривает актуальные проблемы, с которыми сталкивается современная лингвистика в контексте глобализации, технологического прогресса и культурного разнообразия. Авторы анализируют мультикультурный характер общества, цифровую коммуникацию, языковые контакты, сохранение и исчезновение языков, языковой расизм и дискриминацию, методологические проблемы исследований, а также междисциплинарный характер лингвистики, обозначая вызовы и перспективы в каждой из этих областей.

MUNDARIJA

1 – SHO‘BA: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KOGNITOLOGIYA VA LINGVOMADANIYAT

<i>Alimova M.Kh., Umarova Z.T., Ismoilova I.A.</i> Cognitive and cultural aspects of grammatical causation.....	3
<i>Rasulov Z.I., Bobojonov Sh.U.</i> A Comparative Analysis of Linguistic Phenomena with National-Cultural Significance: Mythological Lexical Units in English and Uzbek Languages	8
<i>Rasulov Z.I., Khikmatova Sh.U.</i> , Comparative analysis of non-equivalent lexicons and realia in English and Uzbek languages	12
<i>Haydarov A.A., Yodgorova M.U.</i> Exploring emotional concepts: understanding the multifaceted language of human feelings	15
<i>Xaydarov A.A., Barноева M.A.</i> , Характеристические особенности синонимов и антонимов ..	18
<i>Haydarov A.A., Sattorova Sh.</i> , The usage of phonographical stylistic devices	21
<i>Haydarov A.A., Farangiz T.</i> , Modallik ma’nosini ifodalashning lingvistik asoslari.....	24
<i>Ataboev N.B.</i> , Principles of data collection in creating a diachronic corpus.....	27
<i>Saidova M. U., Akhrorova M.</i> The importance of stylistic devices in the development of oral discourse.....	30
<i>Саидова М. У., Косимова Н.Ш.</i> Мимика как средство невербального общения в художественной литературе	33
<i>Qobilova N.S., Hojiyeva M.</i> Pragmatic analysis of prohibition speech acts in the English language	35
<i>Qobilova N.S., Yusupova D.</i> The historical development of speech economy in phonetics: insights into the works of scholars	39
<i>Rakhmatova M.M.</i> Travelogues about central Asia: orientalism and intertextuality	41
<i>Зикриллаев Ф. Н., Рўзиев Я. Б.</i> Диалектик материализм ва тилшунослик методологияси.....	45
<i>Bobokalonov O.O., Thierry J.M.</i> Cognitive science and linguoculturology in French modern linguistics	54
<i>Djalilova Z.B., Umarova M.</i> A study of metaphoric conceptualizations of happiness in English poetry	61
<i>Djalilova Z.B., Ibotova M.</i> Discourse analysis from linguistic perspective.....	64
<i>Kobilova A.B., Buriyeva G.</i> Pragmatic features of periphrasis in journalism	66
<i>Kobilova A.B., Ro’ziyeva D.</i> O’zbek tili reklamalarining lingvomadaniy xususiyatlari.....	68
<i>Kobilova A.B., Nasullaev A.</i> Characteristics of medical linguacultural metaphors in English.....	71
<i>Vaxidova F.S.</i> Tourizm terminlari rivojida sayohatnomalarning o’rni	73
<i>Shukurova M.A., Sobirova Sh.</i> Mood in English: exploring its characteristics and features.....	76
<i>Akhmedova S.H., Rakhimova N.B.</i> Explanation of the concept of stereotype in linguistic culture ..	80
<i>Akhmedova S.H., Shokulova L.</i> Characteristics of verbal and non-verbal communication on the Internet	83
<i>Nurmatova G.Kh.</i> Nanotechnology discourse.....	86
<i>Ruziyeva N.Z.</i> Unique features of euphemisms in language vocabulary	88
<i>Khayrullayeva N.N.</i> Iqtisodiy matndagi metafora vazifalari	91
<i>Баракатова Д.А.</i> Основные проблемы современной лингвистики: вызовы и перспективы ..	94
<i>Nazarova N.A.</i> The profound impact of anthroponyms	96
<i>Yuldasheva F.E.</i> The rules of conversation	99
<i>Akramov I.I.</i> Aphorisms: the production and loss of conceptual power	102
<i>Mukhammadieva N.M.</i> Specific features of emotional means of language	107
<i>Navruzova N. Kh.</i> Analyzing connotations in literary works.....	110
<i>Kodirova H. Kh.</i> The importance of pragmatic and communicative-functional approach in the translation of false speech acts.....	113
<i>Туйлиева Л. А.</i> Особенности организации ЛСГ глаголов биологического состояния	117